

## INSON HAYOTIDA MUHABBATNING O'RNI.

**Rustamova Iroda**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Insoniyat dunyoga kelibdiki, demak bir-birlari bilan muloqot qilib, o'zaro bir-birlari bilan munosabatda boladilar. Masalan, jamiyatda insonlar do'stlariga, tanishlariga, qarindoshlariga, yaqinlariga, ota-onasiga, opa-singil va aka-ukalariga bo'lgan munosabatlari orqali yaqinlikni uyg'otadi. Shu insonga nisbatan qandaydir yaqinlik rishtasi paydo bo'ladi. Misol tariqasida shuni aytadigan bo'lsak hech bir ota-ona farzandidan yoki hech bir farzand o'z ota-onasidan voz kecha olmaydi, hech kim ularni ajrata olmaydi toki o'z hayotlari payoniga yetmaguncha, chunki bu munosabat ota-ona bilan farzandning yoki farzand bilan ota-onani bir-biriga bo'lgan so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan yaqinlikning, mehr-muhabbatning, hurmat-izzatining qanchalik porloq ekanligidan dalolat beradi.

O'zi muhabbat deganda har bir narsaga nisbatan tushunish mumkin bo'lgan hissiyotni bilamiz. Shulardan muhabbat degan narsani ya'ni hissiyotni paydo qiladigan bu ikki kishini ya'ni ayol(qiz) va erkak(yigitni)ning bir-biriga bo'lgan munosabatini aytishimiz mumkin. Yani buni ajoyib tuyg'u desak ham bo'ladi. Bu muhabbat hammada ham uchrashi, bo'lishi mumkin. Yana shuni ham aytish kerakli qaysi mutafakkir yoki olim, shoira yoki yozuvchining asarlarini o'qimang, ularning hammasi o'z ijodiy faoliyatida inson hissiyotlarining eng kuchli va sirli tuyg'ular olamiga yetaklagan, uni yengib bo'lmas g'ovlardan o'tishga va cho'qqilarni zabt etishga undagan, uni rag'batlantirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa etgan buyuk muhabbat haqida yozib o'tgan.

Hatto o'lim to'shagida yotgan kishiga ham umid bag'ishlab, hayot nash'asini surdirgan, oddiy kunlariga kamalak jilolarini arg'umon etgan, uning atrof-muhitni hamda o'zligini idrok qilishi uchun turtki bo'lgan. Shaxs ruhiyatida hatto o'ziga ham noma'lum bo'lgan qudratni kashf etgan. Ko'hna va hamisha navqiron hisoblangan bu insoniy tuyg'u hammaga barobar aziz va muqaddasdir.[1.92]

Muhabbatga hamma insonlar umri davomida talpinib, uni orzu qilib qilib yashaydilar. U insonga katta quvonch va baxt shu bilan birga azob-uqibat beruvchi tuyg'u. Uni ta'riflashga so'z ojiz ammo gapirmaslikni ham iloji yoq. Bu tuyg'u sof va samimiy u o'ziga tortuvchi shirin hislar uyg'otadi. Insonlar uni har-xil tasavvur qilishadi. Lekin bu hayotda hamma narsa o'zgargani kabi u ham o'zgaradi. Masalan bor muhabbat yo'q bo'ladi yoki yangidan paydo bo'ladi. Yana shuni aytish kerakli sevib qolgan juftlik

birgalikda vaqt o'tkazsa, muhabbat osmonida sayr etadi. Sevib qolgan odam atrofga o'zining mehr-muhabbat nazari bilan qaraydi. Shuning uchun sevgan insoni unga bekamu ko'st bo'lib ko'rinadi. Munosabatlarida har qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham osongina hal bo'lishini o'ylaydi va shunga ishonadi. Bu real hayotimizda hamma narsa bir teks bo'lmagani kabi munosabatlar ham yaxshi va yomon tomoniga o'zgarib turadi va bu normal holatdir. Aslini olganda munosabatlar ustidan ishlash kerak aks holda eng ehtirosli muhabbat ham uzoqqa cho'zilmaydi. Eng asosiysi esa bir-biriga nisbatan ishonch va hurmat bir-birini qadrlash, bir-birini tushuna bilish lozimligidir. Shu tushunchalarga tayangan insonlar doim to'g'ri yo'ldadirlar deb o'ylayman.

Shu o'rinda muhabbatni paydo qilgan sevgi va do'stlik tushunchalarini ham keltirib o'tsak sevgi bu boshqalarni yoki kimnidir seva olish qobiliyati ya'ni bu hissiyot qalblarning yaqinligi his-tuyg'ularning namayon bo'lishi alomatidir. Shu o'rinda sevgini turlarini ham keltirib o'tsak.

Psixologik manbalarda sevgiga asoslangan munosabatlarning bir qator turlari va tipologiyasi keltirilgan. Biz bu o'rinda J.Linning 6 tipli munosabatlar nazariyasini keltirishni joiz deb bildik. Ular Eros, Mania, Laudis, Storge, Agape, Pragma. Shu kabi sevgini tipologiyalarga ajratishga uringan olimlar soni ko'p (masalan, Maslou, Gozman, Shostrom va boshqalar) lekin barchasiga ham aql-idrokka, hayotiy mo'ljallar xususiyatlariga, o'zaro hamkorlikka, tayyorlikka tayangan sevgi ancha baquvvat va umrboqiydir. [2.66-67]

Endi shunday qilib muhabbatni paydo qilgan sevgini keltirdik endi esa sevgini paydo qilgan boshqa munosabat ya'ni do'stlikni ham keltirib o'tsak. To'g'ri muhabbat va sevgini paydo bo'lishi uchun do'st bo'lish do'stlik munosabati bo'lishi kerakmi degan savol ham paydo bo'lishi mumkin.

Ayrim insonlarga asta sekinlik bilan boshqa munosabatlar orqali muhabbat paydo bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Masalan shunchaki bir joyda ko'rib qolishi yoki kimlar orqali tanishib keyinchalik munosabati bog'lagan insonlar va boshqa jarayonlarda ham kuzatish mumkin. Ammo lekin do'stlik orqali munosabatlarning yaqinlashishi boshqa jarayon deb olsak boladi.

Insonlar jamiyatda yashab har xil odamlari bilan munosabat o'rnatganidan keyin har xil do'stlar orttirishi mumkin. Masalan, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilib turli to'garaklar, jismoniy mashqlarni o'rgatadigan maskanlarda shug'illanilsa ham do'st orttirishi imkoniyati paydo bo'ladi, buni inkor etib bo'lmaydi. Bu do'stlik tufayli ular bir-birlariga ijobiy ta'sir etadilar, ular bir-birlariga do'stona munosabatda bo'ladilar.

Qizlar bilan o'g'li bolalar do'stlik munosabatida bo'lmasalar, o'g'li bolalar johil, qo'pol, shavqatsiz bo'lib qolishlari mumkin. Qizlar esa shalpaygan, beqaror bo'lishlari mumkin.[1.86-87]

Do'stlik o'zaro bir-birini tushunishga asoslanadi. Shu munosabatlardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak aynan shu do'stlik munosabatini o'rnini sevgi va muhabbat munosabati egallab olishi mumkin. Ammo bu hammada ham emas. Lekin inson kim bilandir yaqin munosabat o'rnatmoqchi bo'lsa avval unga do'stona munosabatda murojaatda boladi. Shu keltirilgan munosabatlar jarayonlari orqali muhabbat paydo bo'lishi ham mumkin. Shu muhabbat atalmish hissiyot orqali oila qurib baxtli bo'lgan insonlar qancha yoki aksincha muhabbatiga erisha olmay azoblanib o'zini-o'zi qiynab, har xil vaziyatlarga yo'liqqan va qorong'u kunlarni boshida o'tkazgan insonlar qancha.

Shuning uchun har bir inson mehr-muhabbatli bo'lib hamma sevilib sevib yashasa, sevgan insoni va yaqinlari bilan hayoti davomida birga bo'lib baxtli saodatli yashash; inson uchun hayotdagi so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan katta baxt hisoblanadi.

Shunday insonlar borki nimani xoxlasa o'shani muhayyo qiladi o'zi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni, pullari va mansabi orqasidan topaman deb o'ylaydi. Ammo inson zotiga xos bo'lgan insoniy tuyg'ularni, hislarni sotib olishning iloji yoq. Ya'ni bu degani insonda hamma narsa bo'la turib muhabbat sevgi, sevisish-sevilish hislari bo'lmasa u narsalar ya'ni mansab, pul, boyluk bu baxt bo'la olmaydi, baxtni u pullar mansab evaziga sotib ola olmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, muhabbat deganimizda avvalombor ota-onamiz, yaqinlarimiz va ollohga bo'lgan ilohiy tuyg'uni korishimiz mumkin. Shuning uchun ham muhabbat degan bu hisni yuqorida aytganimdek hamma narsaga nisbatan ishlatishimiz mumkin. Odam o'zining eng yaxshi ko'rgan narsasiga, qanaqadir o'zi uchun eng kerakli kundalikli buyumiga va hakazo narsalariga nisbatan bu tuyg'u bo'lishi mumkin. Muhabbat degan bu hissiyot insonning ichkidagi iliq bir hislarning eng buyugi deb hisoblayman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shoumarov G'. B. "Olia Psixologiyasi", 86-87 b, 92 b. Toshkent-2010.
2. Karimova Vasila. "Oila psixologiyasi", 66-67 b. Toshkent-2007